(11). Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Москва, АСТ: Восток-Запад, 2007, 314 с.
(12). Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, Harcourt, Brace and Company, 1921, 258 p.
(13). Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Москва, "Академический проект", 2004, 992 с.

Norova Shaxnoza Jamshidovna (O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi; ORCID ID: 0009-0003-0862-6155)

MODAL SO'ZLARNING SHAKLLANISHI VA SINTAKTIK-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tilidagi modal so'zlarning shakllanishi va sintaktik-funksional xususiyatlari o'zaro aloqadorlikda tadqiq etiladi. Modal so'zlarning tarixan turli so'z turkumlariga mansub birliklardan shakllanishi, ularning leksik-semantik xususiyatlarining o'zgarishi hamda gap tarkibidagi funksional mavqeyining qayta tashkil topishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Modal birliklarning ot, sifat, ravish, fe'l va boshqa turkumlarga oid so'zlardan rivojlanishi misollar asosida yoritilib, ularning gap bo'lagi sifatidagi dastlabki xususiyatlaridan modal-kommunikativ birlikka aylanish jarayoni tahlil qilinadi. Shuningdek, modal so'zlarning gap mazmuniga munosabati, sintaktik mustaqilligi, pozitsion xususiyatlari va kirish birliklar bilan aloqasi ochib beriladi. Tadqiqot natijasida modal so'zlarning o'ziga xosligi ularning so'zlovchi munosabatini ifodalashi bilan bir qatorda, leksik mazmundan funksional-kommunikativ mazmunga tomon rivojlanishi bilan belgilanishi asoslanadi.*

Kalit so'zlar: *modal so'z, modal ma'no, grammatiklashuv, sintaktik funksiya, sintaktik mustaqillik, kirish birlik, modalizatsiya, kommunikativ mazmun.*

ФОРМИРОВАНИЕ И СИНТАКСИКО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МОДАЛЬНЫХ СЛОВ

Аннотация. *В статье исследуются процессы формирования модальных слов в узбекском языке и их синтаксико-функциональные особенности во взаимосвязи. Особое внимание уделяется формированию модальных слов на основе единиц, первоначально относящихся к различным частям речи, изменению их лексико-семантических характеристик и функциональной позиции в структуре предложения. На материале конкретных примеров рассматривается развитие модальных единиц на основе существительных, прилагательных, наречий, глаголов и других разрядов слов, а также процесс их перехода от первоначальной функции члена предложения к модально-коммуникативной функции. Анализируются отношение модальных слов к содержанию предложения, их синтаксическая самостоятельность, позиционные особенности и связь с вводными единицами. В результате исследования обосновывается, что специфика модальных слов определяется не только их способностью выражать отношение говорящего к сообщаемому, но и процессом их функционального развития от лексического значения к функционально-коммуникативному значению.*

Ключевые слова: *модальные слова, модальность, грамматикализация, синтаксическая функция, синтаксическая самостоятельность, вводная единица, модализация, коммуникативное значение.*

FORMATION AND SYNTACTIC-FUNCTIONAL FEATURES OF MODAL WORDS

Annotation. *This article examines the formation of modal words in the Uzbek language and their syntactic and functional features in their interrelation. Particular attention is paid to the development of modal words from units originally belonging to different parts of speech, the transformation of their lexical and semantic characteristics, and the restructuring of their functional position within sentence structure. Based on linguistic examples, the study analyzes the development of modal units from nouns, adjectives, adverbs, verbs, and other word classes, as well as their transition from their initial functions as sentence constituents to modal-communicative functions. The article also examines the relationship of modal words to sentence meaning, their syntactic independence, positional features, and interaction with parenthetical units. The study demonstrates that the specificity of modal words is determined not only by their ability to express the speaker's attitude toward the content of an utterance, but also by their functional development from lexical meaning toward functional and communicative meaning.*

Keywords: *modal words, modality, grammaticalization, syntactic function, syntactic independence, parenthetical unit, modalization, communicative meaning.*

Kirish. Til taraqqiyoti jarayonida ayrim so'zlarning dastlabki lug'aviy va grammatik xususiyatlari asta-sekin o'zgarib, nutqda yangi funksional vazifalarni bajarishi kuzatiladi. Bunday o'zgarishlar, ayniqsa, funksional birliklarning shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Modal so'zlar ham ana shunday murakkab

shakllanish jarayoniga ega bo‘lgan birliklar sirasiga kiradi. Ularning muayyan qismi tarixiy jihatdan boshqa so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan birliklarning semantik va funksional jihatdan qayta shakllanishi natijasida yuzaga kelgan. Shu sababli modal so‘zlarning hozirgi til tizimidagi mavqeyini tushunish uchun ularning faqat bugungi grammatik xususiyatlarini emas, balki shakllanish manbalarini ham hisobga olish lozim. Modal so‘zlar so‘zlovchining voqelik yoki bayon qilinayotgan fikrga munosabatini ifodalashi bilan ajralib turadi. Biroq mazkur xususiyat ularni oddiy leksik birliklardan bir zumda ajratib turuvchi belgi sifatida shakllanmagan. Ayrim modal birliklarning tarkibida ularning dastlabki leksik ma’nosining izlari saqlanib qolgan bo‘lsa, ayrimlari uzoq tarixiy taraqqiyot davomida dastlabki grammatik xususiyatlaridan ancha uzoqlashgan. Tadqiqotning dolzarbligi modal so‘zlarning shakllanishi bilan ularning hozirgi sintaktik-funksional mavqeyi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Modal birlikning qaysi so‘z turkumidan rivojlanganligi, dastlabki ma’nosi va keyingi semantik o‘zgarishlari uning gap tarkibidagi vazifasi va sintaktik mavqeyini tushuntirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O‘zbek tilshunosligida modal birliklarning grammatik tabiati, sintaktik mavqeyi va ma’no xususiyatlari grammatik tadqiqotlar hamda tilshunoslik terminologiyasiga oid ishlarda yoritilgan. Mazkur masalani o‘rganishda o‘zbek tili grammatikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar, tilshunoslik terminlarining izohli lug‘atlari hamda hozirgi o‘zbek adabiy tilining grammatik qurilishini yorituvchi manbalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi [1;2;3;4]. Modal so‘zlarning grammatik tabiatini aniqlashda ularning kelib chiqish manbalarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Chunki hozirgi o‘zbek tilida modal vazifada qo‘llanayotgan ayrim birliklar dastlab boshqa so‘z turkumining vakili bo‘lgan. Ularning keyinchalik modal ma’no kasb etishi tilning semantik va grammatik taraqqiyoti bilan bog‘liq jarayon sifatida qaralishi mumkin.

Mavjud materiallarda modal so‘zlarning turli so‘z turkumlari asosida shakllanganligi qayd etilib, ularning ayrimlari ot, sifat, ravish, fe’l va boshqa birliklar bilan genetik jihatdan bog‘lanishi ko‘rsatiladi. Shu jihatdan, modal so‘zlarni faqat tayyor grammatik kategoriya sifatida emas, balki tarixiy-semantik va funksional taraqqiyot mahsuli sifatida o‘rganish muhimdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, modal so‘zlarning shakllanishi masalasini ularning sintaktik xususiyatlari bilan birgalikda o‘rganish zarur. Chunki leksik ma’noning o‘zgarishi birlikning gap tarkibidagi sintaktik munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur maqolada aynan shu jihat – modal so‘zlarning shakllanishi va sintaktik-funksional qayta ixtisoslashuvi o‘rtasidagi munosabat asosiy tadqiqot yo‘nalishi sifatida belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda modal so‘zlarning shakllanishi va sintaktik-funksional xususiyatlarini aniqlash uchun semantik, funksional-sintaktik va strukturaviy yondashuvlardan foydalanildi. Tahlil jarayonida modal birliklarning dastlabki lug‘aviy mazmuni bilan nutqdagi modal-kommunikativ vazifasi o‘rtasidagi munosabatga alohida e’tibor qaratildi. Semantik yondashuv orqali birliklarning nominativ mazmunidan modal mazmunga tomon o‘zgarishi kuzatildi. Funksional-sintaktik yondashuv asosida esa modal so‘zlarning gap bo‘lagi sifatidagi imkoniyatlari, gapning predikativ asosiga munosabati, sintaktik mustaqilligi va gapdagi pozitsion xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotning muhim metodologik tamoyillaridan biri birlikni uning tashqi shakli asosida emas, balki konkret nutqdagi funksiyasi asosida baholashdan iborat. Chunki ayrim modal birliklar tashqi ko‘rinishiga ko‘ra mustaqil so‘z turkumlariga mansub birliklar bilan shakliy o‘xshashlikka ega bo‘lishi mumkin. Biroq ularning gapdagi real funksiyasi boshqa bo‘lishi ehtimoli mavjud. Shuningdek, modalizatsiya jarayoni funksional taraqqiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Bunda quyidagi ketma-ketlik asosiy tahlil mezoni sifatida olindi: leksik ma’noning o‘zgarishi → funksional ixtisoslashuv→sintaktik mustaqillashuv→modal-kommunikativ vazifaning kuchayishi. Mazkur metodologik yondashuv modal so‘zlarni alohida birlik sifatida emas, balki leksik-semantik, funksional va sintaktik jarayonlar kesishgan nuqtada shakllangan hodisa sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Modal so‘zlarning shakllanish manbalari. Modal so‘zlarning grammatik tabiatini aniqlashda ularning kelib chiqish manbalarini o‘rganish muhimdir. Hozirgi o‘zbek tilida modal vazifada qo‘llanayotgan ayrim birliklar, dastlab, boshqa so‘z turkumining vakili bo‘lgan. Keyinchalik, ularning semantik va funksional xususiyatlari o‘zgarib, modal birlik sifatidagi mavqeyi shakllangan. Masalan, haqiqatda, aslida, kabi birliklarda dastlabki leksik mazmun bilan modal mazmun o‘rtasidagi aloqani kuzatish mumkin. Aslida, shakli “asl”, “asosiy”, “haqiqiy” mazmunlari bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, nutq jarayonida u so‘zlovchining aytilayotgan fikrni aniqlashtirishi, unga munosabat bildirishi yoki oldingi fikrga tuzatish kiritishi uchun xizmat qila boshlagan. Masalan: “Aslida, masala boshqacha.”

Ushbu gapda aslida konkret predmet yoki harakatning belgisini bildirmaydi. U butun gap mazmunini qamrab olib, so‘zlovchining avvalgi yoki taxmin qilinayotgan qarashga munosabatini ifodalaydi.

Xuddi shuningdek, “Haqiqatda, bu masala ancha murakkab”. Bu gapda, haqiqatda, biror predmet yoki harakatning belgisini bildirmaydi. Bu birlik so‘zlovchining keyingi fikrni haqiqiy holat sifatida taqdim eta-yotganini ko‘rsatadi. Demak, birlikning nominativ funksiyasidan modal-kommunikativ funksiyaga siljishi kuzatiladi.

Modalizatsiya va funksional qayta ixtisoslashuv. Modal so‘zlarning shakllanishidagi muhim jarayonlardan biri leksik ma’noning funksional jihatdan qayta talqin qilinishidir. Dastlab, muayyan predmet, belgi, harakat yoki holatni bildirgan birlik keyingi bosqichda so‘zlovchining fikrga munosabatini ifodalashga xizmat qila boshlaydi. Bunday o‘zgarish jarayonida so‘zning dastlabki ma’nosi butunlay yo‘qolib ketishi shart emas. Ayrim birliklarda boshlang‘ich semantik qatlam bilan modal mazmun o‘rtasidagi aloqa saqlanib qoladi. Boshqa hollarda esa yangi funksional ma’no shu darajada kuchayadiki, birlikning avvalgi grammatik xususiyati ikkilamchi planga o‘tadi. Albatta, birligi ham mazkur jarayonni ko‘rsatadigan birliklardan biridir. Dastlabki leksik xususiyatlardan modal funksiyaga tomon siljish natijasida bunday birlik harakatning belgisini ifodalashdan ko‘ra, so‘zlovchining bayon qilinayotgan fikrga ishonch darajasini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Masalan: “U ishni, albatta, bajaradi.”

Bu gapda, albatta, “qanday bajaradi?” savoliga javob berib, harakatning tarzini bildirmaydi. Aksincha, “u ishni bajaradi” degan predikativ mazmunga so‘zlovchining qat’iy ishonchini yuklaydi. Shu jihatdan, modalizatsiya oddiy ma’no almashinuvi emas, balki birlikning nutqdagi funksional mavqeyi o‘zgarishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Modal so‘zlarning sintaktik mustaqilligi. Modal so‘zlarning shakllanish jarayoni ularning sintaktik xususiyatlarida ham o‘z aksini topadi. Dastlab, mustaqil so‘z sifatida muayyan gap bo‘lagi vazifasida qo‘llangan birlik modal funksiyaga o‘tgach, avvalgi sintaktik aloqalarini susaytiradi. Natijada uning gap tarkibidagi mavqeyi o‘zgaradi. Masalan, sifat yoki ravish sifatida qo‘llangan birlik dastlab fe’l yoki boshqa so‘z bilan sintaktik munosabatga kirishishi mumkin. Ammo u modal birlik sifatida shakllangach, bunday tobelik munosabati yo‘qolib, birlik butun gap mazmuniga nisbatan munosabat bildiradi. Shu sababli modal so‘zlarning sintaktik xususiyatini ularning shakliy belgilaridan ko‘ra, gapdagi real funksiyasi asosida aniqlash muhim. Birlikning tashqi ko‘rinishi uning tarixiy yoki hozirgi grammatik vazifasini har doim ham belgilamaydi.

Modal so‘zlarning gapdagi pozitsiyasi. Modal so‘zlarning sintaktik qayta ixtisoslashuvi ularning gapdagi joylashish imkoniyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Ular gap boshida, o‘rtasida yoki oxirida kelishi mumkin. Bunda pozitsiyaning o‘zgarishi asosiy modal ma’noni saqlagan holda, fikrning kommunikativ tashkil etilishiga ta’sir qiladi. Masalan:

“Ehtimol, tadqiqot davom ettiriladi.”

Bu gapda modal birlik butun fikrning taxminiy xarakterini oldindan belgilaydi. So‘zlovchi predikativ mazmunni bayon qilishdan avval unga o‘z bahosini beradi.

“Tadqiqot, ehtimol, davom ettiriladi.”

Bu shaklda asosiy axborot gapning boshida berilib, modal munosabat uning o‘rtasida kiritiladi.

“Tadqiqot davom ettiriladi, ehtimol.”

Bu holatda esa taxminiy baho fikr yakunida beriladi. Demak, modal so‘zlarning sintaktik pozitsiyasi ularning kommunikativ vazifasi bilan bevosita bog‘liq. Modal birlik gapning strukturaviy asosini tashkil etmasa-da, uning qanday talqin qilinishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Modal so‘z va predikativ mazmun munosabati. Modal so‘zlarning o‘ziga xos jihati shundaki, ular gapning predikativ mazmunini yaratmaydi, balki mavjud predikativ mazmunga qo‘shimcha baho beradi. Bu xususiyat ularni gap bo‘laklaridan farqlash imkonini beruvchi asosiy mezonlardan biridir. Masalan: “U ertaga keladi.” Bu gapda predikativ munosabat u va keladi birliklari orqali yuzaga keladi. “Ehtimol, u ertaga keladi.”shaklida esa *ehtimol* yangi predikativ munosabat hosil qilmaydi. U mavjud hukmning ehtimollik darajasini bildiradi. Shu sababli modal so‘zlarning sintaktik funksiyasini “predikativ mazmunni shakllantirish” emas, “predikativ mazmunni modifikatsiya qilish” sifatida belgilash mumkin. Mazkur xususiyat ularning gapdagi boshqa birliklardan farqli mavqeyini aniqlashda muhim nazariy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Modal so‘zlarning kirish birlik sifatidagi funksiyasi. Modal so‘zlarning sintaktik qayta ixtisoslashuvi, ko‘pincha, ularning kirish birlik sifatida qo‘llanishida yaqqol ko‘rinadi. Bunday birliklar gapning asosiy sintaktik tuzilishiga kirmaydi, ammo so‘zlovchining fikrga munosabatini bildiradi. Masalan:

“Aftidan, u bu xabarni eshitmagan.”

“Shubhasiz, mazkur masala qo‘shimcha tadqiqotni talab qiladi.”

“Chamasi, voqea biz kutganimizdan boshqacha kechgan.”

Ushbu gaplarda *aftidan, shubhasiz, chamasi* birliklari gap bo‘laklari bilan odatdagi tobelanish munosabatiga kirishmaydi. Ularning semantik ta’sir doirasi butun gapga yoyiladi. Shu jihatdan, modal so‘zlarning kirish birlik sifatidagi faoliyati ularning tarixiy shakllanish jarayonining sintaktik natijasi sifatida ham qaralishi mumkin. Birlikning dastlabki leksik-sintaktik xususiyatlari zaiflashgani sari uning gapga nisbatan umumiy modal munosabat bildirish imkoniyati kuchayadi.

Grammatiklashuv va modal so‘zlarning shakllanishi. Yuqoridagi kuzatishlar modal so‘zlarning shakllanishini grammatiklashuv jarayoni bilan bog‘liq holda talqin qilish imkonini beradi. Grammatiklashuv deganda, dastlab, nisbatan mustaqil leksik mazmunga ega bo‘lgan birlikning grammatik yoki funksional xususiyat kasb etishi tushuniladi. Modal so‘zlarda ham shunga o‘xshash jarayonni ko‘rish mumkin: mustaqil lug‘aviy ma’noga ega birlik asta-sekin so‘zlovchining fikrga munosabatini ifodalovchi vositaga aylanadi. Bu jarayon bir necha o‘zaro bog‘liq o‘zgarishni qamrab oladi. Avvalo, birlikning nominativ mazmuni ikkilamchi mavqega o‘tadi. Keyin uning muayyan gap bo‘lagi sifatidagi funksiyasi zaiflashadi. Nihoyat, birlik butun gap mazmuniga taalluqli bo‘lgan modal-kommunikativ vazifani bajara boshlaydi.

Shunday qilib, modal so‘zlarning shakllanishida:

•nominativ ma’no → funksional qayta talqin → sintaktik mustaqillashuv → modal-kommunikativ funksiya kabi izchil rivojlanish kuzatiladi.

Bu esa modal so‘zlarning hozirgi sintaktik xususiyatlari ularning tarixiy shakllanishidan uzilgan hodisa emasligini ko‘rsatadi. Aksincha, semantik o‘zgarish, funksional ixtisoslashuv va sintaktik mustaqillashuv bir butun hodisaning turli bosqichlari sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa va takliflar. O‘zbek tilidagi modal so‘zlarning tabiati ularning faqat hozirgi semantik mazmuni yoki gapdagi tashqi shakli asosida belgilanmaydi. Ularning shakllanish manbalari, tarixiy taraqqiyoti va sintaktik-funksional qayta ixtisoslashuvi ham mazkur birliklarning mohiyatini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil qilingan materiallar modal so‘zlar tizimi turli so‘z turkumlariga mansub birliklarning uzoq muddatli semantik va grammatik o‘zgarishlari natijasida shakllanganini ko‘rsatadi. Modal birliklarning ot, sifat, ravish, fe’l va boshqa so‘z turkumlari bilan genetik aloqasi ularning shakllanishi bir xil mexanizm asosida yuz bermaganligini ko‘rsatadi.

Ayrim birliklarda dastlabki lug‘aviy ma’no izlari saqlangan bo‘lsa, boshqalarida modal funksiya ustuvorlik kasb etib, avvalgi grammatik xususiyatlar ikkilamchi holatga kelgan. Shu sababli modal so‘zlarning shakllanishini oddiy so‘z turkumi almashinuvi emas, balki semantik, funksional va sintaktik qayta tashkil topish jarayoni sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Modal so‘zlarning sintaktik o‘ziga xosligi, avvalo, ularning gapning predikativ asosini yaratmasdan, mavjud fikrga so‘zlovchining munosabatini yuklashida namoyon bo‘ladi. Ularning gapning turli pozitsiyalarida qo‘llanishi, intonatsion jihatdan ajralishi, ko‘pincha, kirish birlik vazifasida kelishi ularni mustaqil gap bo‘laklaridan farqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida modal so‘zlarni o‘rganishda ularning kelib chiqish manbasi, semantik taraqqiyoti, funksional ixtisoslashuvi va sintaktik mustaqilligini yagona tizimda tahlil qilish taklif etiladi. Shuningdek, kelgusidagi tadqiqotlarda modal birliklarning tarixiy korpus materiallari asosida taraqqiyot bosqichlarini aniqlash, ularning turli kommunikativ vaziyatlardagi pragmatik funksiyalarini qiyosiy o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, modal so‘zlarning sintaktik xususiyatlarini ularning shakllanish jarayoni bilan birgalikda o‘rganish o‘zbek tilida modal kategoriyaning tabiatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bunday yondashuv modal so‘zlarni faqat gapdan tashqari, izolatsiyalangan birlik sifatida emas, balki leksik-semantik taraqqiyot, grammatiklashuv va sintaktik funksionalizatsiya jarayonlari kesishgan nuqtada shakllangan birliklar sifatida baholash imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1996.

(2). Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002.

(3). Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. Тошкент, “Фан”, 1976.

(4). Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, “Университет”, 2002.

(4). Aytmuratov D. Тюркские этнонимы. Нукус, “Каракалпакстан”, 1986, 234 с.